

2026-yil 19-mart

## Yoshlar muammolari o'rganildi, xonadonbay uchrashuvlar o'tkazildi



Ma'lumki, Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan haftaning har payshanbasi "Yoshlar kuni" sifatida belgilangan.

Shu munosabat bilan, bugun "O'zkimyosanoat" AJ mas'ullari Jamiyat boshqaruv raisiga biriktirilgan Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani "Paxtachi" MFYda istiqomat qiladigan 21 nafar yosh bilan uchrashdi.



“O‘zkiimyosanoat” AJ boshqaruv raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Muhammadbobur Abdurazakov bevosita xonadonlarga tashrif buyurib, yoshlarning muammolari, taklif va tashabbuslarini o‘rgandi, muloqotlar o‘tkazdi.



Har bir yoshning murojaati tinglanib, ularning hayotiy ehtiyojlari va kelgusidagi rejalarini qo'llab-quvvatlash, ularni ishsizlik toifasidan chiqarish bo'yicha "Paxtachi" MFY yoshlar yetakchisi bilan takliflar muhokama qilindi.



Shu bilan birga yaqinlashayotgan Ramazon hayiti va Navro'z bayramini munosib nishonlash maqsadida yoshlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

"O'zkiymyosanoat" AJ tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini manzilli hal etish va tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi.











**source:**

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlar-muammolari-o-rganildi-xonadonbay-uchrashuvlar-o-tkaz>